ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

TURKIY XALQLAR ALLALARIDA OTA OBRAZI

Shamsiya Egamberdiyeva

UBS o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek va turk bolalar folklorining tarkibiy qismlari bo‘lmish alla matnlarida “ota” obrazi yetakchi xarakterlardandir. Ota goh oila suyanchi bo‘lib tasvirlansa, goh musofir, goh zolim timsollarini namoyon qiladi. Onaning otaga munosabati nafaqat oilaviy muhit, balki ijtimoiy ong darajasini ham ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: mohiyat, sabr, iroda, zulm, homiy, musofir, cho‘l.

Ma’lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi-ardoqlaydi. Ona qalbidagi shukronalik hissi bilan unga berilgan eng oliy ne’mat – farzandi uchun Xudodan jamiki yaxshi sifatlarni so‘raydi va buni allasida mujassamlashtiradi. Allaning mohiyati – A.Vetuxov ta’kidlashicha, – ularda onalik qalbining, ayollik mahzunligining barq urib turishidadir. Ona bolasiga dardini, quvonchini so‘ylar ekan, ular orasidagi munosabatning sababkori OTA obrazini yetakchi planga olib chiqadi.

Otaning oiladagi o‘rni onaning unga munosabatiga bog‘liq. Onalar o‘z allalaridan boshlab bolaga ota haqidagi fikrlarini singdira boshlaganlar. Allalardagi ota goh homiy, oila boshi, goh musofir, qalblarni sog‘inchi ezgan, goh zolim oilasiga, ahli ayoliga aziyat yetkazgan.

Hozir dadang keladi, alla.

Olma olib keladi, alla.

Balalarimga deb-o, alla,

Qo‘yniga solib keladi, alla[1].

O‘zbek oilalarida OTA – oila boshi. Uning kelishi bir bayram. Otaning ishdan kelishi uchun alohida tayyorgarlik ko‘riladi. O‘z navbatida ota ham quruq qaytmaydi. Farzandlari va oilasi ta’mini uchun yelib-yuguradi. O‘zbek folklorining barcha janrlarida olma muhim badiiy detall bo‘lib keladi[2]. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida olma sevgi, muhabbat timsoli hisoblanishi bilan birga, homila uyg‘otuvchi meva zamirida kelib chiqqan farzand timsolini ham anglatadi. O‘zbek xalq ertaklaridan “Sehrli olma” ertagida aytilishicha, qadim zamonda ikki qo‘shni yashar ekan, biri boy, ammo befarzand; ikkinchisi nochor, lekin bola-chaqasi ko‘p ekan. Boy qo‘shni bir kuni kambag‘al qo‘shnisidan “Qo‘shni yeyishga ovqatingiz yo‘q, biroq doimiy ravishda uyingizdan quvonch, kulgu tovushlari tinmaydi?”, – deb so‘rabdi. Shunda kambag‘al qo‘shni uzr so‘rab: “Bizning uyda oltin olmalarimiz bor, er-xotin ularni bir-birimizga yumalatib o‘ynaymiz”, – deb javob bergan ekan. Kambag‘al qo‘shni nazarda tutgan oltin olmalar, albatta, bu ularning bolalari edi. “Olma o‘ziga yuklangan ma’nolari bilan “barakaning, zurriyodning, abadiylikning, yoshlikning, go‘zallikning, quvvatning, sog‘liqning, sevgining, ishonchning ramzidir”[3]. Otaning qo‘yniga aynan olmaning solib kelishi uning oilasiga, ayoliga, farzandlariga bo‘lgan mehr-muhabbati ramzidir. Har qanday timsol ramz bo‘la oladi, lekin barcha ramzlar timsol darajasiga yetmaydi. “O‘zbek folkloridagi olma obrazi ana shunday timsolga aylangan kam sonli ramzlardan biridir”[4].

Shu bolaning dadasi, alla.

Mirpo‘stinning sadasi, alla,

[1]Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrida yashovchi Hikmatxon Asqaraliyevadan 2024-yil Sh.Egamberdiyeva tomonidan yozib olingan.

[2] Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент:Фан, 2020. – Б. 42

[3] Şimşek, Esma (2008), “Ölümsüzlük İlacı Elma”, Turkish Studies/ Türkoloji Araştırmaları Dergisi, Volume 3/5 Fall.

[4] Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент:Фан, 2020. – Б. 42

Ko‘zlari xumor-xumor, alla,

To‘nlariga ko‘ztumor, alla. [Eng sara allalar, 20]

Shuningdek, ona o‘z sevgisini, ehtiromini ham turmush o‘rtog‘iga alla matni bilan izhor etadi. Ozgina yumor qorishtirib yorining qaddini mahalladagi Mirpo‘stinning sadasiga qiyos etadi. Mirpo‘stin Andijon viloyatidagi qishloq nomi. O‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, andijonlik ona tilidan aytilgan ushbu alla matnida OTA sada daraxtiga mengzaladi. Odatda, yosh yigitlar – qaddi raso terakka o‘xshatiladi. Terakning o‘zidan boshqani o‘laydigan holi yo‘q. Ammo, sada – yon tomonga shox tashlagan, quyuq barglar og‘ushida, ro‘zg‘or yuki tushgan shaxs timsolida tasvirlanadi. Sada – mehr ramzi. Chunki sadaning soyasida yozda issiqdan, qish-qirovli kunlarda yog‘ingarchilikdan himoyalansa bo‘ladi. Yozda tangaday quyosh nuri, yomg‘irda bir tomchi suv tushirmaydigan sada – oilasini mustahkam himoya qo‘rg‘oni bilan o‘rab olgan OTA timsolidir. Ota tavsifi bilan boshlangan alla matni yana bola siyratiga qaratiladi. Ona bolasining xumor-xumor boqishlariga asir bo‘lib, to‘nlariga ko‘ztumor taqib qo‘yishni ko‘zlaydi. Bu yerda xalqning asrlar davomida amal qilib kelgan ko‘z magiyasiyasiga inonchi namoyon bo‘ladi.

Turk allalarida ham onalar otaning oiladagi ta’minotchi vazifasini ta’kidlab, uni iniga polaponlariga ozuqa tashiyotgan boyqushga qiyoslaydilar.

Hu hu hu kuşu

Derenin tepenin baykuşu

Enginlerde yuvası

Mamalar getirir babasi.

Ota timsolining boyqushga qiyoslanishida ham ulkan ma’no bor. Boyqush epchil, nigohi o‘tkir qush. O‘tkir nigoh bo‘lgani uchun ham tunda ov qilish qobiliyatiga ega. Xalq og‘zaki ijodida**,** shuningdek**,** boyqushni aql-idrok, donolik ramzi sifatida ham ko‘ramiz. O‘zbek adabiyoti tarixida Gulxaniy o‘zining “Zarbulmasal” asari bosh qahramoni sifatida boyqushni tanlagani ham bejiz emas. Turk onasi o‘z navbatida turmush o‘rtog‘iga ta’rif berarkan, uni “beylar boshi” deb ataydi. Shu bilan birga o‘zini ham unutmaydi, o‘zini qimmatbaho “javohir tosh”ga qiyos etadi.

Nenni benim oğlum, nenni

Babası beyler başı, nenni

Anası cevahir taşı, nemi

Nenni benim oğlum nenni. [Türk ninnilerinden seçmeler,64]

An’anaviy xalq qo‘shiqlarida o‘z juftiga ega bo‘lmagan biron obraz, kechinma yoki misrani uchratish qiyin. Xalq qo‘shig‘i egizak tuyg‘ular, kechinmalar, obrazlar ifodasidir.[5] Ota-ona obrazi ham shunday egizak timsollardan biridir.

Ba’zi allalarning “yoqimli ohanglari ichida davr muhiti, kishilar tirikchiligi, siyosiy-iqtisodiy hayot, yashash sharoitlari, kishilar o‘rtasidagi munosabatlari xilma-xildagi qarama-qarshiliklar oddiy bo‘yoqlarda katta mahorat bilan o‘z aksini topgan bo‘ladi”[6]. Otaning rizq izlab uzoq safarga otlanishi, musofirchilik, ayriliq, hijron ohanglari ham ona e’tiboridan chetda qolmaydi. Ona farzandlarining otasiga xat yozib, turnalardan unga eltishini so‘raydi. Turna – ezgulik xabarchisi, bu epizod ham onaning pokiza tuyg‘ulari izhori sifatida alla matniga olib kirilmoqda.

[5] Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 40.

[6] Safarov O. Bolalar folklori. – Toshkent, 2017. – B. 17.

Havodan uchgan turnalar, alla

Boshginamdan uchsalar, alla.

Qanotiga xat yozsam, alla,

Dadajoningga eltsalar, alla. [Eng sara allalar, 21]

Turna – o‘zbek xalq og‘zaki ijodida xabarchi, elchi ramzi[7]. Ona safarga ketgan yoriga shu turnalar orqali xabar yubormoqchi. Onaning o‘z turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan muhabbati, sog‘inchi va ayriliq azobi mana shu mungli misralar orqali jonlanmoqda. Ona xalq dostonlari va ertaklaridan yaxshi anglaydiki, xabarchilik vazifasini qushlar tezroq va aniq bajaradi. Masalan, “Ravshan” dostonida Ravshan yozgan xatni xon Dalliga yetkazgan qush mayna edi. Onasidan yoki buvisidan turna obrazi harakatlantirilgan alla matnini eshitgan 5-6 yoshli bolalarda esa “qo‘shiq matni transformatsiyaga uchrab, o‘zida yangi bir hayotiy ehtiyojni mujassam etgan holda postfolklor tarzida yashab kelmoqda”[8]. Turk allalarida ham musofirchilik qayg‘ulari aks etgan tasvirlar talaygina.

Nenni nenni elden

Adetinde kurusun yelden

Baban da gelecek gurbet elden

Nenni nenni uyu yavrum huuu . [Türk ninnilerinden seçmeler,11]

Onada otaning o‘z uyiga tezroq qaytishiga umid bor. Ota tezroq qaytsa-yu, onaning yolg‘izligiga chek qo‘yilsa. Haftalab, oylab, yillab davom etgan musofirchilik, nafaqat otaning, onaning ham sillasini quritgan. Och-yupun qolishlar, farzandlari uchun yemak izlash muammosi ona uchun turmush o‘rtog‘ining uyga qaytishini istab duo qilishdan o‘zga chorasini qoldirmagan.

“Alla – Onaning bolani uxlatishga uringan bir vaqtda o‘ziga o‘zi, bolasi bilan yoki boshqa biri bilan so‘zlashmasi, aslinda ichini to‘kishidir. Bu alla kuylash odatining ko‘zga ko‘ringan, ochiq jarayonining qalb tubidagi yopiq holatidir”[9]. Ko‘p o‘zbek oilalarida qizlar majburan turmushga berilgan. Qizning o‘zi yoki farzandi bilan ota uyiga qaytib kelishi isnod hisoblangan. Ko‘p hollarda ona farzandlarining kelajagi uchun barcha sitamlarni o‘z yelkasiga olgan va erining zulmiga chidab yashashga majbur bo‘lgan.

Etak cho‘ldan kelganman, alla,

Bedov otin olganman, alla.

Bolam otang zulmiga-ya, alla

Bir sani deb ko‘nganman, alla[10].

Cho‘l – ayriliq ramzi. Musofir yurtga kelin bo‘lib tushgan ona, chorvador otasi bag‘rida cho‘lda yayrab yashaganini ko‘z oldiga keltiradi, faqatgina farzandiga bo‘lgan mehrigina uni eri xonadonida qolishga undaydi. Bedov ot obrazi – onaning erkinligi ramzi. Erkinligi cheklangan ona fig‘onlari

[7] Мингбоева Д. Т. Тимсоллар тилисми. – Тошкент: Адабиёт, 2022. – Б. 143.

[8] Турғунов Ш.Д. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори дисс. (PhD). – Тошкент, 2019. – Б. 35

[9] Kasapoğlu Akyol, P. (2014). Kültürel Değişme ve Teknolojinin Etkisiyle Şekillenen Günümüz Ninnileri ve Ninni Dinletme Geleneği. Bilig, 69, 127-142.

[10] Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 14.

bolasining beshigi yonida kuyga yog‘rilmoqda. Turk allalarida ham go‘dagiga otasidan shikoyat qilgan parchalar uchraydi.

Beşiğine koydum seni

Baban hep üzüyor beni

Baban çabuk gelse de bir

O zaman ben görsem seni

Bu alla matnida esa, bolasini onaga ko‘rsatmayotgan zolim er obrazi namoyon bo‘ladi. Ona va bolani ayirgan ota obraziga yalinish, zorlanish motivlari yetakchilik qiladi. Zolim ota obrazi o‘zbek allarida ham ko‘zga tashlanadi. Zero, o‘g‘il kutgan otaning qiz tug‘ilganida g‘azab otiga minib ona va bolani ko‘chaga haydagani haqidagi rivoyat va hikoyatlarni ko‘p eshitganmiz.

Bodom shoxi gulladi, alla,

Chiyabo‘ri uvladi, alla.

Jallod otang: “Bu qiz-ku!” – deb, alla-yo alla,

Sen-u meni uydan quvladi, alla-yo alla. [Eng sara allalar, 45]

Demak, voqeaband alla matniga ko‘ra bahor chog‘lari va otaning avzoyi xuddi chiyabo‘rining uvillashi kabi dahshatli. Otaga endi “jallod” ta’rifi uning zolimligini bildirish uchun qo‘llanmoqda. Gullagan bodom shoxi – bu yangi tug‘ilgan qiz farzand timsoli bo‘lib gavdalantirilayotgan bo‘lsa, yana qiz tug‘ilganida quturayotgan ota esa chiyabo‘riga mengzalmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda ota obrazi butun dunyo xalqlari allalarining yetakchi obrazidir. Ota – suyanch, ota – ishonch, ota – himoya. Onalar tilidan aytilgan alla matnlarida ham u oilaning asosiy ustuni sifatida o‘z o‘rniga ega. Ijtimoiy munosabatlar, davr, zamondagi o‘zgarishlar bu obrazning ham turli qiyofalarda namoyon bo‘lishiga olib kelgan. Onalar dunyoning qaysi bir burchida yashamasin, dardlari, orzulari, umidlari uyqash. Har ikki millatning ona sezimlari, tuyg‘ulari, ruhiyat tasvirlari hamohang. Dunyoda bittagina go‘dak tug‘ilar ekan, “alla” deb nomlangan tarona o‘z jilvasini ayol nolasi orqali namoyon qilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамзлар. – Тошкент, “Фан” нашриёти, 2020. – 192 б.
2. Саримсоқов Б. Маросим фольклори. “Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди” китоби. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1990. – 116 б.
3. Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. – Toshkent: Sharq, 2013. – 176 b.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqachi, 2010. – 368 b.
5. Мирзаев Т., Турдимов Ш., Жўраев М., Эшонқулов Ж., Тилавов А. Ўзбек фольклори. – Тошкент: 2022. – 240 б.
6. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Адабиёт, 2022. – 280 б.